

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

O'zDJTU rektori

I.Tuxtasinov

2026 yil

**Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutiga kiruvchilar uchun
13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (chet tillari)**

ixtisosligidan

DASTUR

Toshkent – 2026

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (chet tillari) mutaxassisligi bo’yicha tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka kirish imtihoni dasturi O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining “Ingliz tilini o‘qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari” kafedrasida muhokama qilindi va _____ 2026 yilda foydalanishga tavsiya etildi.

Tuzuvchilar: p.f.d., O‘zDJTU professori Axmedova Layloxon Talibjonovna
p.f.f.d., O‘zDJTU dotsenti Gulyamova Mavluda Xamitovna
p.f.d., O‘zDJTU professori Isroilova Dildora Muxtorovna
p.f.d., O‘zDJTU professori Ziyayeva Sevara Anvarovna
p.f.f.d., O‘zDJTU dotsenti Shosaidova Lola Shomaksudovna

Taqrizchilar: p.f.d., O‘zDJTU dotsenti Muradkasimova Kamola Shuhratovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Ta’lim sifatini ta’minlash bo‘limi bosh
mutaxassisi, p.f.f.d (PhD), dotsent Maxmudov Qudratbek Shavkat o‘g‘li

MUNDARIJA

1. Kirish.....	4
2. Baholash mezonlari.....	6
3. Dastur mezonlari.....	10
4. Adabiyotlar ro'yxati.....	14

KIRISH

Mazkur dastur 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (chet tillari) mutaxassisligi bo'yicha tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka kirish uchun mo'ljallangan.

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risidagi Qonuni"da belgilanishicha "O'quv rejalari va o'quv dasturlarini joriy etish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'qitishning innovatsion shakllari va usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi" bo'yicha, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilab berilgan "Xorijiy tillarni o'rgatishni ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo'nalishda ta'lim sifatini tubdan oshirish" vazifasini amalga oshirish bo'yicha, 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-27-sonli Prezident farmoni, 2026-yil 10-aprelda PF-58-sonli "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora tadbirlari" to'g'risidagi farmoniga, shuningdek, ta'lim sohasida qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Dasturni ishlab chiqishda Uzluksiz ta'lim konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlari uchun xorijiy tillar (XT) bo'yicha davlat ta'lim standarti va Malakaviy talablarning asosiy qoidalari, shuningdek, Yevropa Kengashining "Chet tilini bilishning Umumyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish, baholash" (CEFR-Common European Framework of Reference: Learning, Teaching, Assessment) hujjatini o'rganish asosida XT ta'limining xalqaro tajribasi inobatga olingan.

XT o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish dasturning asosiy o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Ushbu kompetensiya kasbiy va ilmiy yo'nalishdagi turli vaziyatlarda samarali faoliyat olib borishga hamda jahon ta'lim tizimi

integratsiyasini rivojlantirishga imkon beradigan lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetentsiyalar tizimini o'zida aks ettiradi.

Imtihonni muvaffaqiyatli topshirish uchun rus/chet tillarini o'qitish metodikasi tarixi va zamonaviy holatining asosiy muammolarini tushunish, shuningdek, tadqiqotning tanlangan sohasidagi muammolarni aniqlash qobiliyatini namoyish etish zarur. Darsliklar yoki amaliy maqolalardagi mavjud har bir holat masala muammosi nuqtayi nazaridan kelib chiqib yoritilishi, pedagogika, psixologiya va psixolingvistika ma'lumotlari bilan asoslanishi kerak.

Kirish imtihonini topshiruvchi shaxs O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlari (umumta'lim o'rta maktabi, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, teknikumlari va oliy ta'lim muassasalari) uchun rus/xorijiy tillar bo'yicha dasturlarni, amaldagi darslik, o'quv qo'llanma hamda O'Umlarni (o'quv-uslubiy majmua) yaxshi bilishi, davriy nashrlardan xabardor bo'lishi lozim.

Imtihon topshiruvchi ham rus/chet tillarini o'qitish amaliyotini bilishini, ham o'z tadqiqoti muammosini nazariy jihatdan bayon qila olishi, uning dolzarbligini isbotlashi, ushbu masala yuzasidan olimlarning turli nuqtayi nazarlarini va ularning asoslarini tahlil qilish qobiliyatini ham ko'rsatishi kerak.

Tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka kirish imtihonining har bir varianti 3 ta savoldan iboratdir. Birinchi savol nazariy, ikkinchisi nazariy-amaliy, uchinchisi ilmiy.

1-savol 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (rus/chet til) mutaxassisligi bo'yicha nazariy bilimlarni baholashga qaratilgan.

2-savol nazariy va amaliy xarakterga ega bo'lib, imtixon topshiruvchining rus/chet tillarini o'qitishning zamonaviy metodlari va texnologiyalari bo'yicha nazariy va amaliy bilim darajasini aniqlashga qaratilgan.

3-savol imtixon topshiruvchining 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (chet til) mutaxassisligi bo'yicha tadqiqot faoliyatiga tayyorligini baholashga qaratilgan.

IMTIHONGA TAYYORGARLIK KO'RISH VAQTI

Umumiy vaqt – 30 daqiqa

1-savol uchun – 10 daqiqa

2-savol uchun – 10 daqiqa

3-savol uchun – 10 daqiqa

IMTIHON TOPSHIRUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI BAHOLASH MEZONLARI

Maksimal ball - 100 b.

Baxo	Ball	Izoh
A'lo	90-100	Ballar har bir savol uchun alohida qo'yiladi va oxirida umumlashtiriladi. 1-2 savol uchun 35 ball. 3-savol uchun 30 ball.
Yaxshi	70-89	
Qoniqarli	60-69	
Qoniqarsiz	0-59	

5 баҳолик шкала	100 баллик шкала	5 баҳолик шкала	100 баллик шкала	5 баҳолик шкала	100 баллик шкала
5,00-4,96	100	4,30-4,26	86	3,60-3,56	72
4,95-4,91	99	4,25-4,21	85	3,55-3,51	71
4,90-4,86	98	4,20-4,16	84	3,50-3,46	70
4,85-4,81	97	4,15-4,11	83	3,45-3,41	69
4,80-4,76	96	4,10-4,06	82	3,40-3,36	68
4,75-4,71	95	4,05-4,01	81	3,35-3,31	67
4,70-4,66	94	4,00-3,96	80	3,30-3,26	66
4,65-4,61	93	3,95-3,91	79	3,25-3,21	65
4,60-4,56	92	3,90-3,86	78	3,20-3,16	64
4,55-4,51	91	3,85-3,81	77	3,15-3,11	63
4,50-4,46	90	3,80-3,76	76	3,10-3,06	62
4,45-4,41	89	3,75-3,71	75	3,05-3,01	61
4,40-4,36	88	3,70-3,66	74	3,00	60
4,35-4,31	87	3,65-3,61	73	3,0 дан кам	60 дан кам

1 savol - 35 b.

Baho	Ball	Me'zonlar
A'lo	30 - 35	Xorijiy tillarni o'qitish metodikasining zamonaviy yo'nalishlarini mukammal egallash hamda ularni ilmiy-nazariy va metodologik asoslar bilan tahlil qila olish, shuningdek, javoblarni xalqaro tadqiqotlar, lingvodidaktik konsepsiyalar va zamonaviy pedagogik yondashuvlarga tayangan holda ilmiy asosda bayon etish.
Yaxshi	25 – 29	Xorijiy tillarni o'qitish metodikasining zamonaviy yo'nalishlari va pedagogik yondashuvlarini bilish, shuningdek,

		muayyan mavzu doirasidagi javoblarni lingvodidaktik manbalar, metodik qarashlar hamda qisman ilmiy-nazariy ma'lumotlarga tayangan holda asoslab bayon eta olish.
Qoniqarli	19 – 24	Xorijiy tillarni o'qitish metodikasining ayrim zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion pedagogik yondashuvlari hamda til ta'limidagi dolzarb metodik tendensiyalar haqida nazariy tasavvurga ega bo'lish.
Qoniqarsiz	0 – 18	Berilgan savol mazmunini to'liq yoritib bera olmaslik hamda mavzu yuzasidan yetarli darajada asoslangan va izchil javob taqdim eta olmaslik.

2 savol - 35 b.

Baho	Ball	Me'zonlar
A'lo	30 - 35	Shaxsiy kasbiy-pedagogik tajribani tahliliy yondashuv asosida taqdim eta olish, shuningdek, rus va xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy metodlari, innovatsion pedagogik texnologiyalari hamda lingvodidaktik yondashuvlari bo'yicha chuqur nazariy va amaliy kompetensiyalarga ega bo'lish.
Yaxshi	25 – 29	Shaxsiy kasbiy tajribaga murojaat qilmagan holda, chet tillarini o'qitishning zamonaviy metodlari, innovatsion pedagogik texnologiyalari hamda lingvodidaktik

		yondashuvlari bo'yicha yetarli darajadagi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish.
Qoniqarli	19 – 24	Mavzu doirasida asosan nazariy bilimlar yoki amaliy kasbiy tajriba bilan cheklangan kompetensiyaga ega bo'lish.
Qoniqarsiz	0 – 18	Berilgan savollar va ularning mazmun-mohiyatiga doir nazariy bilimlar hamda amaliy kasbiy tajribaning yetarli darajada shakllanmaganligi.

3-savol - 30 b.

Baho	Ball	Me'zonlar
A'lo	27 – 30	Ilmiy tadqiqot mavzusi bo'yicha chuqur va tizimli bilimlarga ega bo'lish, tadqiqotning ilmiy-nazariy asoslarini mukammal anglash hamda muammoning dolzarbligini ilmiy dalillar va zamonaviy tadqiqotlar asosida asoslab bera olish.
Yaxshi	22 – 26	Tadqiqotning ilmiy-nazariy asoslarini anglay olish hamda tadqiqot muammosining dolzarbligini ilmiy yondashuv va tahliliy mulohazalar asosida asoslab, bahs-munozara yurita olish.
Qoniqarli	17 - 21	Tadqiqotning ilmiy-nazariy asoslarini to'liq va chuqur anglay olmaslik hamda tadqiqot muammosining dolzarbligi yuzasidan faqat

		cheklangan darajada, yuzaki va qisman mulohaza yurita olish.
Qoniqarsiz	0 - 16	Tadqiqotning ilmiy-nazariy asoslarini izchil va asosli tarzda bayon eta olmaslik hamda muammoning dolzarbligi yuzasidan ilmiy jihatdan asoslangan mulohaza yurita olmaslik.

DASTUR

O'zbekistonda xorijiy tillarini o'qitish metodikasi. Chet tillarini o'qitish metodikasini rivojlantirishni davriylashtirish. Metodikani rivojlantirishning turli davrlarida ta'limning asosiy usullari. Ta'limning maqsadi, mazmuni, tamoyil va usullari. XT ta'limining zamonaviy metodologiyasining asosiy muammolari. Chet tillarini o'qitish bo'yicha o'quv jarayonini jadallashtirish usullari.

Xorijiy tillarni fan sifatida o'qitish metodikasi

O'zbekiston Respublikasidagi zamonaviy til siyosati. Chet tillarini o'qitishda CEFRning ahamiyati.

Metodikaning predmeti va uning vazifalari. Metodikaning boshqa fanlar (pedagogika, didaktika, psixologiya, tilshunoslik, psixolingvistika va boshqalar) bilan aloqasi. Ilmiy tadqiqot metodlari, metodikaning konseptual apparati. Chet tillarini o'qitish metodikasi turlari.

Ta'limning maqsad va vazifalari. O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimida XTni o'qitish maqsad va vazifalari. O'zbekiston Respublikasida chet tillarini o'qitishning asosiy yondashuvlari.

Xorijiy tillarni o'qitish mazmuni. Ta'lim mazmuni. Ta'limning maqsad, vazifalari va mazmunining o'zaro aloqadorligi. Ta'lim mazmunining tarkibiy qismlari. Xorijiy kommunikativ kompetensiya. Lingvistik kompetensiya. Sotsiolingvistik kompetensiya. Pragmatik kompetensiya (diskursiv kompetensiya, kompensatorli kompetensiya). Nutqning predmetli mazmuni. Ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar.

Chet tillarni o'qitish yondashuv, texnologiya, metod, usullari.

Yondashuv, texnologiya, metod, usul tushunchasi. Chet til ta'limining an'anaviy va zamonaviy metodlari. Chet tillarini o'qitishda ekotizim yondashuvi: ta'lim muhiti, texnologiya va ijtimoiy komponentlar integratsiyasi. Til o'rganishning uzluksiz ta'lim ekotizimini yaratish modellari va xorijiy tajriba (Top-300 universitetlar misolida).

Ta'limning tashkiliy shakllari. Xorijiy til bo'yicha mashg'ulotlar tizimi: mashg'ulot/darslar sikllari (Units), ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlari; mashg'ulot variantlari (majburiy va fakultativ kurs); nutqiy faoliyat bo'yicha dars turlari. Masofaviy ta'lim. Chet tili bo'yicha mustaqil ish, ta'lim bosqichi va vazifalari bilan bog'liq uning turlari. Chet tillari bo'yicha sinfdan /auditoriya dan tashqari ishlarning maqsadi va turli ko'rinishlari.

Mashqlar tizimi. "Mashqlar tizimi" va "Mashqlar tipologiyasi" tushunchalari. Mashqlar tasnifi. Mashqlar turlari. Mashqlar tizimining didaktik funksiyalari, Mashqlarni bosqichma-bosqich tashkil etish; Raqamli va multimodal mashqlar, Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda mashqlar tizimining o'rni

Xorijiy tillarni o'qitish vositalari. XT ta'limi "vositalari" tushunchasi. Ta'lim vositalari tasnifi. Chet tillari bo'yicha dastur ta'limning muhim vositasi sifatida. Ta'lim jarayonida darslikning ahamiyati va o'rni, darslik mazmuni muammosi, uslubiy tamoyillar, darslik tuzilishi va O'UM. Ta'limning texnik vositalari va ko'rgazmalilik. Chet tillarni o'qitishda AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari)dan foydalanish imkoniyatlari.

Nutqni tinglash (tinglab tushunish) orqali idrok etish va tushunish ta'limi. Tinglab tushunish nutq faoliyatining bir turi sifatida. Tinglashga o'rganish muammolari. Tinglab tushunishga o'rgatish uchun o'quv materiallariga qo'yiladigan talablar. Tinglab tushunish ta'limi usullari. Nazorat turlari va usullari: test, so'rovnomalar, reyting, imtihon. Davlat ta'lim standartlari bo'yicha tinglash qobiliyatiga nisbatan qo'yiladigan talablar. Yozuvni tinglash ko'nikmalarini baholash mezonlari xorijiy kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida.

Og'zaki nutq ta'limi. Gapirish nutq faoliyatining bir turi sifatida. Dialogik nutq ta'limi muammolari. So'zlashishga o'rgatishda materialga qo'yiladigan

talablar. Monologik nutq ta'limi muammolari. Gapirishga o'rgatish usullari. Nazorat turlari va usullari: test, so'rovnoma, reyting, imtihon. DTS (Davlat ta'lim standartlari) bo'yicha gapirish qobiliyatiga nisbatan qo'yiladigan talablar. Gapirish qobiliyatini baholash mezonlari chet tili kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida.

O'qishni o'rganish. O'qish nutq faoliyatining bir turi sifatida. O'qishni o'rganish vazifalari. O'qish turlari. O'qishga o'rgatish uchun o'quv materiallariga qo'yiladigan talablar. Ovoz chiqarib va ovoz chiqarmay o'qish texnikasi ta'limi muammolari. O'qishning turli turlari ta'limi usullari. O'qishning turli ko'rinishlarida tushunishni tekshirish turlari va usullari. Nazorat turlari va usullari: test, so'rovnoma, reyting, imtihon. O'qish qobiliyatini baholash mezonlari chet tili kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida.

Yozma nutqqa o'rgatish. Yozish nutq faoliyatining bir turi sifatida. Yozish va yozma nutqning maqsad va usullari. Yozish va yozma nutqqa o'rgatishning ish turlari. Yozishni va yozma nutqqa o'rgatish usullari. Nazorat turlari va usullari: test, so'rovnoma, reyting, imtihon. Yozish va yozma nutq nazoratining turlari va shakllari. Yozish ko'nikmalarini baholash mezonlari chet tili kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida.

Leksik ta'lim. Leksik kompetensiyaning shakllantirish chet tili kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida. Leksik ta'limning lingvistik komponenti. Leksik ta'limning psixologik komponenti. Leksik minimumlarni tanlash tamoyillari. Leksik minimumlarning turlari. Leksik material ustida ishlashning asosiy bosqichlari. Leksika ta'lim metodlari. Kontekstda leksik ta'lim. Leksik mashqlar tipologiyasi. Leksik kompetensiyaning nazorat qilish turlari va usullari.

Grammatikani o'rganish. Grammatik kompetensiyaning shakllanishi xorijiy kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida. Grammatikani o'qitishning lingvistik komponenti. Grammatikani o'qitishning psixologik komponenti. Grammatik minimumlarning turlari. Grammatik minimumlarni tanlash tamoyillari. Grammatikani o'qitish usullari. Kontekstda grammatik ta'lim.

Grammatik material ustida ishlashning asosiy bosqichlari. Grammatik mashqlar tipologiyasi. Grammatik kompetensiyani nazorat qilish turlari va usullari.

Talaffuzni o'rganish. Fonologik kompetensiyaning shakllanishi xorijiy kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida. Talaffuzni o'rgatish usullari. Talaffuzni o'rganishning lingvistik komponenti. Talaffuzni o'rganishning psixologik komponenti. Tinglab tushunish va gapirish qobiliyati bo'yicha ishlash bosqichlari. Fonetik mashqlar turlari. Fonologik kompetensiyani nazorat qilish turlari va usullari.

Rus/chet tillarini o'qitishda axborot-kommunikatsiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Tillarni o'qitishda pedagogik/ta'lim texnologiyalarining taraqqiyot tarixi. Tillarni o'qitishda pedagogik/ta'lim texnologiyalarining ahamiyati va o'рни. Interaktiv, modulli, o'yinli, loyihali texnologiya va boshqalar. Tillarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari turlari.

Chet tili darsi. Rus/chet tili darsiga qo'yiladigan talablar. Darslar tipologiyasi. Darsni rejalashtirish. Dars tahlili.

Chet tilni o'rgatishda nazorat qilish texnologiyalari. Chet til bilim, ko'nikma malaka va kompetensiyalarni nazorat qilishda CEFR talablari. Chet til bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish turlari, shakllari.

Chet tilni o'rgatishda nazorat qilish test turlari va texnologiyalari. Diagnostic test. Multiple choice. Cloze test. Remodeling. Matching. Yes\No test. True\False test va h.k.z.

Masofaviy ta'lim. Masofaviy ta'limda kommunikativ muhitni shakllantirish, Masofaviy ta'limda motivatsiya muammosi, Masofaviy ta'limda o'quv materiallarini loyihalash, Masofaviy ta'limda akademik halollik muammolari, Masofaviy ta'limda inklyuziv yondashuv, Masofaviy ta'limda o'z-o'zini baholash va refleksiya, Masofaviy ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish.

Inklusiv ta'lim. Chet tillarni o'qitishda inklyuziv ta'lim amalga oshirilish strategiyalari, Inklyuziv ta'limning nazariy asoslari, Inklyuziv ta'lim tamoyillari, Inklyuziv ta'limda raqamli texnologiyalar, Inklyuziv ta'limda o'quv dasturlarini moslashtirish,

Inklyuziv ta'limda baholash tizimi. Differensial ta'lim va universal dizayn (UDL) tamoyillarini til darslariga tatbiq etish.

Chet tillarni o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish. Raqamli pedagogika va sun'iy intellekt (AI) imkoniyatlari. Chet tillarni o'qitishda sun'iy intellektning nazariy asoslari, Sun'iy intellektning xorijiy tillarni o'qitishdagi imkoniyatlari, Chet til ko'nikmalarini shakllantirishda sun'iy intellektdan foydalanish (Tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalari), Chet til ko'nikmalarini shakllantirishda sun'iy intellektdan foydalanish (O'qish va yozish ko'nikmalari), Chet tilini o'qitishda suniy intellekt va baholash tizimi.

Mustaqil ta'limni tashkil etish. Mustaqil ta'limning nazariy asoslari, Mustaqil ta'limni tashkil etish tamoyillari, Mustaqil ta'lim shakl va metodlari, Mustaqil ta'limni tashkil etishda talabaning roli, Raqamli texnologiyalar asosida mustaqil ta'lim, Mustaqil ta'lim samaradorligini baholash, Mustaqil ta'limni rivojlantirish tendensiyalari.

Uzluksiz ta'lim tizimida chet til o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasini shakllantirish. Kasbga yo'naltirilgan ta'limning maqsadi va mazmuni. Chet til o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi. Chet til o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasining komponentlari. Chet tili o'qituvchisining shaxsiy fazilatlar va uning zamonaviy ta'lim jarayonidagi roli.

RASMIY ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risidagi Qonuni".
2. 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. 2026-yil 10-aprelda PF-58-sonli "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora tadbirlari" to'g'risidagi farmoni.

MAXSUS ADABIYOTLAR

1. Akhmedova L.T., Tukhtakhujaeva M.U., Mirzoidova N.A. Teaching Languages Methodology and Educational Technology. — Tashkent: Zuxro Baraka Biznes, 2026. — 430 p.
2. Ахмедова Л.Т., Нормуратова В.И. Практикум по методике преподавания английского языка. —Т.: Фан ва технология. - 2011.
3. Ахмедова Л.Т., Лагай Е.А. Современные технологии преподавания русского языка и литературы. - Т., 2016.
4. Бредихина И.А. Методика преподавания иностранных языков. — Екатеринбург.: Уральский университет, 2018.
5. Гальскова Н.Д. и др. Основы методики обучения иностранным языкам. — М.: Кнорус, 2023.
6. Ёкубов И.Я. Comparative Methods of Teaching English at Schools, Lyceums and Colleges. - Т. - 2014.
7. Жалолов Ж.Ж. English Language Teaching Methodology. — Т.: Фан ва технология. - 2015.
8. Common European framework of reference for languages: learning, teaching, assessment. Language Policy Unit, Strasbourg www.coe.int/lang. CEFR, 2020.
9. Tomlinson B. Developing Materials for Language Teaching. – Cambridge, Cambridge University Press, 2023.
10. Мильруд Р.П. Методика преподавания английского языка. English Teaching Methodology: учеб. Пособие для вузов / Р.П. Мильруд. – М.: Дрофа, 2007.
11. Никитина Г.А. Методика обучения английскому языку. Учебное пособие для подготовки к лекциям и практическим занятиям. Саратов: вузовское образование, 2022. — 277 с.
12. Трубицина О. И. Методика обучения иностранному языку: учебник и практикум для вузов. Москва : Издательство Юрайт, 2021. — 384 с.

13. Ur P. A Course in Language Teaching: Practice and Theory. Cambridge: Cambridge University Press, 2010.

QYSHIMCHA TAVSIYA QILINGAN ADABIYOTLAR

1. Гез Н.И. История зарубежной методики преподавания иностранных языков: учеб. пособие для студ. лингв. ун-ов и фак. ин. яз. высш. пед. заведений / Н.И. Гез, Г.М. Фролова. – М.: Издательский центр «Академия», 2008.

2. Кудышева А.А. Psychology of teaching foreign languages. Учебное пособие для студентов филологических специальностей – Павлодар: Кереку, 2010. – 202 с.

3. Миролюбов А.А. История отечественной методики обучения иностранным языкам / А.А. Миролюбов. – М.: СТУПЕНИ, ИНФРА-М, 2002.

4. Пассов Е.И. Методика как теория и технология иноязычного образования. – Кн. 1. – Елец: ЕГУ им. И.А. Бунина, 2010.

INTERNET RESURSLAR

<http://www.teachingenglish.org.uk>

<http://www.usc.edu>

<http://www.teachermentors.com>

<http://www.teachnet.org>

<http://www.sci.aha.ru/ALL/>

<http://www.onestopenglish.com>

<http://www.tesol.org>